

UO‘K: 551.2.3

## **SURXONDARYO BOTIQLIGINING NEOGEN-TO‘RTLAMCHI YORIQLI-BLOKLI DEFORMATSIYALARI**

**Umurzakov Raximjan Abdurazakovich**<sup>1</sup> – geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor,

[ORCID: 0009-0009-1489-3624](https://orcid.org/0009-0009-1489-3624), E-mail: [umrah@mail.ru](mailto:umrah@mail.ru)

**Xodjayev Abdushukur Karimovich**<sup>2</sup> – geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, dotsent,

E-mail: [khodjaev.shukur@yandex.com](mailto:khodjaev.shukur@yandex.com)

**Ismadullayev Bobomurod Ismadulla o‘g‘li**<sup>3</sup> – doktorant (PhD)

<sup>1</sup>Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent sh, O‘zbekiston

<sup>2</sup>Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent sh, O‘zbekiston

<sup>3</sup>Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti DM, Toshkent sh, O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Maqolada Surxondaryo botiqligining tuzilishida neotektonik harakatlarining o‘rni tavsiflangan. Neogen-to‘rtlamchi davrning yangilangan (1:200 000 miqyosda) qalinlik xaritasi, neotektonik davrda faollashgan yer yoriqlari sxematik xaritasi tuzilgan. Regionning yorilma-blokli sxemasida avvalgi ma‘lum bo‘lgan tektonik tuzilmalar bilan birga ko‘ndalang bloklar va yoriqlar ajratilgan. Ular avvalgi bo‘ylama tuzilmalarni ustiga tushayotgani qayd etilgan. Neftgazga istiqbol tuzilmalarni qidirishda ko‘ndalang yoriqlar va burmalarning qadimgi gorizontlar ustiga tushib murakkablashtirishini hisobga olinishi tavsiya etilgan.*

***Kalit sozlar:** Surxondaryo botiqligi, neotektonika, yer yoriqlari, ko‘ndalang tuzilmalar, neftgazga istiqboll tuzilmalar.*

УДК: 551.2.3

## **НЕОГЕН-ЧЕТВЕРТИЧНЫЕ РАЗЛОМНО-БЛОКОВЫЕ ДЕФОРМАЦИИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ВПАДИНЫ**

**Умурзаков Рахимжан Abdurazakovich**<sup>1</sup> – доктор геолого-минералогических наук, профессор

**Ходжаев Абдушуккур Каримович**<sup>2</sup> – кандидат геолого-минералогических наук, доцент

**Исматуллаев Бобомурод Исмагулла угли**<sup>3</sup> – докторант (PhD)

<sup>1</sup>Ташкентский государственный технический университет имени  
Ислома Каримова, г. Ташкент, Узбекистан

<sup>2</sup>Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, г. Ташкент, Узбекистан

<sup>3</sup>ГУ «Институт геологии и разведки нефтяных и газовых месторождений, г. Ташкент, Узбекистан

***Аннотация.** В статье приводится описание результатов изучения неотектонических движений и деформаций Сурхандарьинской впадины. Составлены новые (в масштабе 1:200 000) карты мощности неоген-четвертичных отложений, схематическая карта активных в новейшее время разрывных нарушений. Наряду с ранее известными тектоническими структурами выделены поперечные разрывные нарушения и блоки. Отмечено, что они накладываются на продольные структуры и осложняют их. Рекомендуется учитывать это в связи с возможными разрушениями структур-ловушек в юрских, меловых и палеогеновых отложениях и миграции залежей нефти и газа.*

***Ключевые слова:** Сурхандарьинская впадина, неотектоника, разрывные нарушения, поперечные структуры, поиск перспективных структур на нефть и газ.*

UDC: 551.2.3

## **NEOGENE-QUATERNARY FAULT-BLOCK DEFORMATIONS OF SURKHANDARYA DEPRESSION**

**Umurzakov, Rakhimzhan Abdurazakovich**<sup>1</sup> – Doctor of Geological and Mineralogical Sciences,  
Professor

**Khodjaev, Abdushukur Karimovich<sup>2</sup>** – Doctor of Philosophy in Geological and Mineralogical Sciences,  
Associate Professor  
**Ismadullaev, Bobomurod Ismatulla ugli<sup>3</sup>** – Doctoral student (PhD)

<sup>1</sup>Tashkent State Technical University named after I.Ismom Karimov, Tashkent city, Uzbekistan

<sup>2</sup>National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent city, Uzbekistan

<sup>3</sup>PI «Institute of Geology and Exploration of Oil and Gas Fields», Tashkent city, Uzbekistan

**Abstract.** *The article describes the results of the study of neotectonic movements of the Surkhandarya depression. New (1: 200,000 scale) maps of the thickness of Neogene-Quaternary deposits, a schematic map of rupture faults active in modern times were compiled. Along with previously known tectonic structures, transverse faults and blocks have been identified. It is noted that they are superimposed on longitudinal structures and complicate them. It is recommended to consider this in connection with possible destruction of trap structures in Jurassic, Cretaceous and Paleogene deposits and migration of oil and gas deposits.*

**Key words:** *Surkhandarya depression, neotectonics, faults, transverse structures, search for promising structures for oil and gas.*

### Kirish

Surxondaryo botiqligi O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan va alohida neft-gazli region sifatida tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otadi. O'zbekistondagi neft-gazli hududlari orasida Surxondaryo botiqligi, Farg'ona botiqligi kabi, - orogen geotektonik rejimda hosil bo'lgan yirik tektonik tuzilmalar qatoriga kiradi [1, 2, 3]. Ammo, geologik tuzilish jihatlarini bilan Farg'ona botiqligidan Surxondaryo keskin farq qiladi. Buning sabablari geologik tarixining chuqur o'tmishlaridan qidirish mumkin. Ammo bu maxsus masala va buning tadqiqot natijalari keyingi ilmiy ishlarda yoritilishi nazarda tutiladi. Ushbu maqolada biz oxirgi o'n besh-yigirma yillarda e'tibordan biroz qolib turgan botiqlikning neotektonikasi to'g'risida so'z yuritamiz. Agar bu masalani o'rganish tarixiga nazar so'lsak, oxirgi ko'pchilik tomonidan umumiy tan olingan xarita sifatida 1971-yilda (L.A.Polkanova tahrirligiga) chop etilgan 1:1 mln lik xaritani eslash mumkin. Bunda albatta ko'pgina o'zbekistonlik olimlar: Sh.D.Davlaytov, A.A.Yuryev, A.M.Akramxo'jayev, O.A.Rijkov, M.S.Saydaliyeva, Z.R.Zokirov, A.A.Yuryev, A.U.Umarov, Sh.D.Davlyatov, A.G.Babayev, Yu.G.Pedder, A.R.Xodjayev, B.B.Sitdikov, M.E.Egamberdiyev va boshqalar qatnashgan, yoki materiallaridan foydalanilgan.

Hozirgi vaqtgacha neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti fondida bu regionning neotektonikasini chuqur o'rgangan A.A.Yuryev, B.B.Sitdikov va boshqalar tomonidan 1967-1980 yillarda olingan materiallar saqlanib kelinmoqda. Avvalgi neotektonik tadqiqotlar asosan 1:500 000 lik miqyoslarda olib borilgan [2]. Qayd etish joizki hozirgi kunga kelib ancha hajmdagi burg'ilash ishlari hamda geofizik ishlari bajarilgan va yangi ma'lumotlar olingan. Boshqa gorizontlar qatorida neogen-to'rtlamchi yotqiziqlar qalinlik ma'lumotlari, turli belgilari bilan namoyon bo'lgan burmali va uzilmali tuzilmalar o'rganilgan. Bulardan tashqari yangi kosmik sur'atlar bilan ifodalangan strukturaviy morfologik elementlarning chegaralari va boshqa ko'rsatkichlari xaritalangan [4, 5, 6, 7].

### Tadqiqot metodikasi

Barcha shu ma'lumotlar umumlashtirilib mualliflar tomonidan regionning yangilangan neotektonik xaritalarini tuzish ishlari olib borilgan. Bu ishlarning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, neftgazdor gorizontlarini o'rganishda ularda aniqlangan neft-gaz tutqichlari sifatida xizmat qilgan tuzilmalarining hosil bo'lish vaqti va tektonik sharoitlarini bilish qidiruv ishlari strategiyasini belgilash uchun ahamiyatlidir. Neotektonik harakatlar tufayli avval paydo bo'lgan uyumlar buzilishi va boshqa joylarga migratsiya bo'lib qayta to'planishi mumkin. Bundan tashqari faol yer yoriqlari zonalarini bo'ylab Yerning ostki qismlaridan flyuidlar oqimi uglevodorod uyumlarini hosil bo'lishiga sababchi bo'lishi qayd etilgan. Ayniqsa neotektonik harakatlar bor va yura gorizontlarining deformatsion elementlarining hozirgi shakllarini belgilagan bo'lib, ularning neftgazga istiqbolligi o'rganilishiga ahamiyat qaratilmoqda [10].

## Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Surxondaryo botiqligining neogen-to‘rtlamchi davri yotqiziqlarining qalinlik sxematik xaritasi 1-rasmda keltirilgan. Surxondaryo botiqligi shimoli-g‘arbiy tomonidan Hisor va Kugitang janubi-g‘arbiy tarmoqlari bilan chegaradosh bo‘lib, sxemada tegishli ravishda shimoli-sharqiy yo‘nalishda cho‘zilgan alohida I-1, I-2, I-3 ko‘tarilmalardan iborat bo‘lgan Kugitang-Boysun-Surxontovlar belgilangan (1-rasm). To‘palangdaryo hududining shimoli-sharqiy qismida, aslida, Hisor megantiklinaliga tutashgan, va o‘rganilayotgan hudud doirasida kichik Machetli (I-4) ko‘tarilishi bilan ifodalanadi. Kugitang-Boysun ko‘tarilmasi bevosita Boysun (1) botig‘i bilan chegaradosh bo‘lib, uning keng shimoli-sharqiy qismi janubi-g‘arbga keskin torayib, Amudaryo sohillarigacha cho‘zilgan (1-rasm).



**1-rasm . Surxondaryo botiqligining neogen-to‘rtlamchi davri yotqiziqlarining qalinlik sxematik xaritasi (tuzuvchilar R.A.Umurzakov, B.I.Ismadullayev, 2025).**

*Shartli belgilar:* Yer yuzida ochilgan turli yoshga ega geologik hosilmalar: 1 - tomezozoy, 2 - mezozoy, 3 – neogengacha yoshli; 4 – uzilmalar: a- umumiy belgi, b-ko‘tarilma-surilmalar- o‘tkir uchi yuza yotishi bo‘ylab; 5 - NQ yotqizilarning qalinligi (metrda), 6 – davlat chegarasi. Raqamlar bilan belgilangan: rim – ko‘tarilmalar, doira ichidagi -tushirmalar. Harflar bilan: M – monoklinallar.

Boysun botiqligi sharq tomondan Kelif-Sherobod-Sariqamish (II) ko‘tarilma bilan o‘ralgan. U Xo‘jaabdyush (1133 m) tog‘idan janubi-g‘arbdan shimoli-sharqqa cho‘zilgan, Xo‘jaibesh, Gadoytopmas (644 m), Qorachag‘il (1116 m), Daralitog‘, Oqtog‘ (985 m) tog‘ tizmalari zanjirini qamrab oladi. Beshqiz tog‘ cho‘qqisidan g‘arb qismida ikki tarmoqqa bo‘linadi. Birinchisi, shimoli-shimoli-sharqiy qismi, nisbatan qisqa Sherobod (II-2) deb nomlangan - Sherobod daryosi o‘zani bo‘ylab Laylakonsoy irmog‘i qo‘shiladigan

joygacha cho‘zilgan. Ikkinchi - Sariqamish (II-3) deb nomlangan, sharqqa qarab egilib Beshqiz tog‘i tomon cho‘zilgan va Kogni tog‘ (736 m) tizmasini, O‘rtaqum vohasini qamrab, so‘ngra shimoli-sharqda - Takasaqirt tog‘ tizmasini (858 m, 1058 m, 1050 m), Boyangora tog‘ini (1116 m) va mutlaq belgisi 1123 m bo‘lgan cho‘qqini) qamrab oladi. So‘ngra Jetimqal’a tizmasini (1216 m), Agatachag‘il tog‘larining qamrab olib Qayrag‘achsoy o‘zanigacha cho‘zilgan.

Surxondaryo botiqligida ham ikki guruh zanjirli ketma-ketlikda shimoli-sharqqa cho‘zilgan ko‘tarilmalar ajratiladi. Birinchisi - Uchqizil-Xaudag (III), Qo‘ymozor (IV), Dalverzin (V). Ikkinchi guruh - Turdiko‘l (VI), Lyalmikor (VII), Xo‘jamil (VIII), Qorovultepa (IX), Arg‘amchi (X). Surxondaryoning janubi-sharq qismida alohida mavqega ega Aqtau (XI) ko‘tarilmasi mavjud. Hududning sharqiy qismini Babatog‘ ko‘tarilmasi (XI) tashkil etadi.

Birinchi guruhga kiritilgan Uchqizil (III-1) -Xaudag (III-2) ko‘tarilmalari mintaqadagi eng yirik Qorasuv-Sherobod-Sharg‘un botiqligini chegaralaydi. Bu botiqlik janubi-sharqdan Kelif-Sherobod-Sariqamish ko‘tarilmalariga tutashgan. Botiq Amu-Daryoning shimoliy qirg‘og‘idan shimoli-sharqqa (Sovetobod-Yangiobod-Talashkan qishloqlaridan, Sherobod (Qorasuv) daryosining quyi oqimi vodiysini qamrab olib, asta-sekin Karmaki qishlog‘iga yaqin torayib boradi. Keyinchalik botiqlik kengligini saqlagan holda, ko‘ndalang uzilmalar bilan buzilgan kichik bloklar ko‘rinishida - Otkamar, Oqqapchig‘ay, Botash, Denau, Sharg‘un, - Sariosiyo va Sharg‘ungacha cho‘zilgan, so‘ngra egilgan holda Tursunzoda tomonga cho‘zilib ketadi. Sovetobod atrofida relyefning mutlaq balandligi taxminan 300 m, Talashganda esa (Qorasuv vodiysida) taxminan 320 m, Sherobod atrifida relyef 390 - 420 m gacha, keyinchalik yana 450 - 460 m gacha balandlashadi.

Atkamar atrofida relyef belgilar 460-502 m, Oqqapchigayda - 490-590 m, Botash va Denov blokida 540-650 m, Sharg‘un atrofida 520-640 m ga yetadi. Jadal erroziyon yemirishlar mavjudligi bu yerda to‘rtlamchi davrda ko‘ndalang ko‘tarilma rivojlanganligi to‘g‘risida dalolat beradi.

Umuman olganda, ushbu Qorasuv-Sherobod-Sharg‘un botiqligi, ko‘ndalang uzilmali-blokli deformatsiyaga qaramay, Surxondaryo depressiyasining asosiy o‘q qismini ifodalaydi. Surxondaryo vodiysining o‘zi, dastlab Sharg‘un botig‘ining janubi-sharqiy qismiga (1-rasm, 2-8) to‘g‘ri keladi, so‘ngra janubi-sharqdan Darvarzin (V) ko‘tarilmasini janubi-sharqdan aylanib Ozod-Qaniqon botig‘iga (3-3) o‘tadi va keyinchalik suvlarini to‘liq Jarqo‘rg‘on - Sho‘rchi (3-1, 3-2) botiqligiga yuboradi.

Jarqo‘rg‘on-Sho‘rchi botig‘i (3-1, 3-2), yuqorida tavsiflanganlarga deyarli Qorasu-Sherobod-Sharg‘un botig‘i parallel ravishda cho‘ziladi, keyin Jayronxonadan shimoli-sharqiy yo‘nalishda Jarqo‘rg‘on, Qoqayti orqali, Jaloir yaqinida torayib, Qumqo‘rg‘on orqali Sho‘rchigacha cho‘zilgan. Keyinchalik shimoli-sharqqa kengayib, Ozod-Qaniqon botig‘i bilan birlashadi. Shu oxirgisini hisobga olgan holda butun botiqlikning nomini Jarqo‘rg‘on-Sho‘rchi-Qaniqon deb atash mumkin, garchi Ozod-Qaniqon botig‘i alohida mavqega ega bo‘lsada va uning shakllanishi boshqa dinamik sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo bu masala maxsus tadqiqotlar talab etadi va hozircha chu to‘xtamga kelib turiladi.


Tariflanayotgan botiqlik janubi-sharqdan Turdiko‘l (VI), Lyalmikor (VII), Xo‘jamil (VIII), Qorovultepa (IX), Arg‘amchi (X) ko‘tarilmalar guruhi bilan chegaralanadi. Bu ko‘tarilmalar guruhi bilan ulardan ancha kattaroq bo‘lgan Bobotog‘ ko‘tarilmasi orasida botiq emas, balki burmaning katta qanoti kabiga o‘xshash Qo‘sh-tar-Tamchi (M5) deb nomlangan monoklinal kuzatiladi. Ozod-Qaniqon botig‘i Qorovultepa va Arg‘amchi cho‘qqilarini ajratib turadi va sharqiy qismida Qo‘sh-tar-Tamchi monoklinaliga tutashadi.

Ta‘riflangan tuzilmalar nafaqat umumiy Surxondaryo botiqligi cho‘zilishiga mos bo‘lgan bo‘ylama cho‘zilgan, balki unga ko‘ndalang bo‘lgan bir muncha bloklarni chegaralab o‘tadigan yoriqlar ajratilgan (2-rasm). Surxondaryo botiqligining asosiy neotektonik yer yoriqlari sxemasida asosiy uch darajaga (rutbaga) ega yoriqlar guruhi ko‘rsatilgan. Shimoli-sharqqa ega bo‘lgan asosiy birinchi darajali yoriqlar asosan mayda mashtabli geologik xaritalarda ifodalangan, turli stratigrafik turkumga ega qatlamlarni tektonik chegarasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Birinchi darajali yer yoriqlari (2-rasm): shimoli – sharqiy yo‘nalishdagilar: Kugitang (1-1) – Boysun (1-2), Sariqamish (3-1) - Surxontog‘ (3-2), Shimoliy Bobotog‘, 5- Xaudag – Shurchi – Chinor, 6- Aktau. Bular regional yoriqlar guruhiga kiritilgan. C.U.Umarxodjayev (1969) Surxondaryo botiqligida shimoli-sharqdan janubi-g‘arbiga cho‘zilgan Kugitang, Boysun, Surxon, Sarikamish, Bobotog‘, G‘arbiy Haudag yer yoriqlarni regional razlomlar sifatida ta‘riflagan. Ularning siljish tik amplitudalari bir necha yuz metrdan to bir necha km

gacha. Bulardan tashqari yangilangan xaritamizda (2-rasmda) shimoli - g'arbdan janubi-sharqqa cho'zilgan ko'ndalang yoriqlar ajratilgan.

Ushbu yoriqlarning zonolari relyefning strukturaviy geomorfologik belgilari bilan ajralib turgan hamda yosh yotqiziqning maydon bo'yicha taqsimlanish xususiyatlari, neogen-to'rtlamchi yotqiziqning qalinligini o'zgarishi belgilari bilan ajralib turgan bloklar chegaralari sifatida namoyon bo'lgan. Ular ham regional razlomlar toifasiga kiritilgan, ammo darajasi yuqoriroq bloklarni chegaralagan uchun ikkinchi darajali deb qabul qilindi. Bularga: 7 – Sherobod (7-1) – Jarqo'rg'on (7-2), 8 – Olakutan (8-1) – Kofrun (8-2) – Jalair (8-3), 9 – Oqkapchigay (9-1) – Shimoliy Dasmanog'a (9-2), 10 – Sangardak (10-1) – Qiziljar (10-2) – Denov (10-3)– Zarkosa (10-4), 12 -, 13 -, 15 - yer yoriqlari kiradi.



**2-rasm. Surxondaryo botiqligining asosiy neotektonik yer yoriqlari sxemasi (tuzuvchilar R.A.Umurzakov, B.I.Ismadullayev, 2025)**

Turli darajadagi yer yoriqlari: 1 – birinchi darajadagi (shartli ravishda, ushbu region uchun), 2 – ikkinchi darajadagi, 3 – uchinchi darajadagi. Yer yuzasiga geologik hosilmalarning chiqishi: 4 – tomezoy hosilmalari, 5 – paleogengacha bo'lgan hosilmalar, 6 – davlat chegarasi.


Bulardan tashqari 2-rasmda raqamlanmagan lokal yoriqlar ajratilgan. Ularning odatda uzunligi qisqa, 2 kmdan to 15-30 kmgacha bo'lgan yoriqlar kiritilgan. Bu yerda ajratilgan lokal yoriqlarning amplitudasi (tik bo'yicha siljishi) bir necha o'n metrdan to bir necha yuzlab metrgachaligi qayd etilgan. Yotish burchaklari 70° -80°. (Umarxodjayev, 1969; Sitdikov va b., 2010).

Gul-diagrammada Surxondaryo botiqligining yangi zamonda hosil bo'lgan va faollashgan asosiy yoriqlarining cho'zilish xususiyati ikki yo'nalishda guruhlanishi namoyon bo'lmoqda. Birinchisi – azimuti 40° (220°), bu guruhga 20° (200°) dan 40° (220°) gacha bo'lgan azimutlar kiradi.


Ikkinchi guruhni 300° - 330° (120°-150°) azimutlari tashkil etadi. Birinchi guruh yoriqlari yirik strukturaviy elementlarni nazorat qiluvchi birinchi darajali yoriqlaridir. Bu elementlar yirik ko'tarilmalar va botiqliklardir, ularning tutashishi yoriqlar orqali kuzatiladi. Ikkinchi guruh yoriqlari asosan Surxondaryo

botiqligining cho‘zilishiga nisbatan ko‘ndalang kesib o‘tuvchi xususiyatga ega bo‘lgan ikkinchi darajali yoriqlardir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu yoriqlar birinchisiga qaraganda ancha kichik mavqega ega, relyefda odatda bir-biriga nisbatan baland-pastligi bilan farqlangan bloklar chegarasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Geologik jihatdan kechki pliotsen va to‘rtlamchi davr yotqiziqlarining yotish xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Bu yoriqlar birinchi guruh yoriqlarini ustiga tushgan, va ayrim uchastkalarda chap tomonlama va ba’zan o‘ng tomonlama siljish belgilari bilan tavsiflanadi. Shundan qiyoslasa bo‘ladiki, ikkinchi guruh yoriqlari birinchiga nisbatan yoshroq, neotektonik faollikning keyingi bosqichlarida rivojlangan desa bo‘ladi.



**3-rasm. Surxondaryo botiqligining (A) hamda Janubi-G‘arbiy Hisorning (B) [11] neotektonik uzilmalarining cho‘zilish gul-diagrammalari**



**4-rasm. Janubiy-G‘arbiy Hisor tarmoqlaridagi tog‘ jinslari ochilmalarini kesib o‘tgan yirik darzliklar yuzalarining cho‘zilishi (a) va yotish azimutlari (b) gul-diagrammalari [11]**

Surxondaryoning neftgazligini o‘rganuvchi geolog olimlar tomonidan batafsil izlanishlar natijasida ko‘pgina neftgazga istiqbol maydonlaridagi tuzilmalar ko‘ndalang yoriqlar bilan murakkablashganligi to‘g‘risida qayd etishgan. Masalan, bunday yoriq Janubiy Haudagning janubi-g‘arbiy tugash qismida o‘tganligi to‘g‘risida S.T.Ruziyev va boshqalar ma’lumot berishgan [8, 9].

### Xulosa

2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Surxondaryo neft va gaz regionida 15 ta neft va gaz koni ochilgan. Ochilgan ushbu konlar 3 ta neft va gazga boy yotqiziqlar bo‘yicha taqsimlangan, bular paleogen, quyi bo‘r va yuqori yura yotqiziqlaridir. Konlarning aksariyati paleogenning Buxoro qatlamida, uning I, II, va III gorizontaliga to‘g‘ri kelgani bekor emas. Balki yura, bo‘r qatlamlarida hosil bo‘lgan neft-gazga boy tuzilmalar tutqichlar neogen to‘rtlamchi harakatlari tufayli buzilib, uyumlar qayta to‘plangan bo‘lishi mumkin. Paleogen gorizontalning tarqalish chuqurligi botiqlik bo‘yicha katta intervallarda o‘zgaradi, 200 m dan 4000-4200 m gacha va undan ortiq. Paleogenning yuqori qismida faqat Akjarsoy, Jalair va Lalmikor konlari aniqlangan. Stratigrafik kengroq intervalda Lalmikor konining turli gorizontalida neftli va gazli uyumlari taqsimlangan. Dasmanag‘a va Korsagli neft konlari o‘xshash geologik-geofizik sharoitlariga, zaxiralarni hisoblash bir xil parametrlariga (neftlilik konturiga) ega bo‘lgani tufayli bu ikki kon birlashtirilgan va Dasmanag‘a-Ko‘rsagli koni deb qayd etilgan [7].

Shunday qilib, tadqiqot natijasida Surxondaryo botiqligining yangilangan neotektonik harakatlarini ifodalovchi qalinlik xaritasi, yoriqli-blokli xaritasi tuzildi. Bunda avval e’tibor berilmagan ko‘ndalang

tuzilmalar ajratilgan. Olingan natijalar neftgazga istiqbol tutqichlar yoshini aniqlash uchun hamda istiqbolli maydonlarini ajratish uchun muhim ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar

- [1] Юрьев А.А. К тектонике и перспективам нефтегазоносности Севера Сурхандарьинской впадины по данным морфоструктурного анализа // Геология и нефтегазоносность юрских отложений Южного и Западного Узбекистана. Труды ИГИРНИГМ, Ташкент: САИГИМС. 1986. С.21-29.
- [2] Ситдиқов Б.Б. Тектоноплитные критерии прогноза нефтегазоносности Гиссарского и Сурхандарьинского регионов. // Узб. журн. нефти и газа. - 2001. - №2. - С.10-11.
- [3] Соколов В.И. Перспективы нефтегазоносности Сурхандарьинского и Гиссарского регионов и методика их реализации. // Узб. журн. нефти и газа. - 2000. - №3. - С.18-20.
- [4] Абидов А.А., Долгополов Ф.Г., Ходжиметов А.И. Система наклонных разрывных нарушений в земной коре Сурхандарьинского нефтегазоносного региона. // Геология нефти и газа. 2001. №6. С.23-29.
- [5] Атабаев Д.Х. История развития и новейший структурно-тектонический план Сурхандарьинской депрессии. Вестник НУУз, №4/1, 2009 г. С. 105-107.
- [6] Атабаев Д.Х. Глубинное строение Сурхандарьи по результатам региональных сейсморазведочных работ МОВЗ. Международная научно-практическая конференция NGGI (ОАО ИГИРНИГМ), Ташкент, 2009.
- [7] Абдуллаев Г.С., Богданов А.Н., Эйдельмант Н.К. Современное состояние и перспективы развития геологоразведочных работ на нефть и газ в Сурхандарьинском регионе Республики Узбекистан // Нефтегазовая геология. Теория и практика. - 2020. - Т.15. - №4. - [http://www.ngtp.ru/rub/2020/40\\_2020.html](http://www.ngtp.ru/rub/2020/40_2020.html).
- [8] Рузиев С.Т. О тектонике и перспектива нефтегазоносности юго-западной периклинали Хаудагской структур // O'zbekiston neft va gaz jurnali. 2010.№4. С. 17-19.
- [9] Рузиев С.Т., Рузиев Т.К. Особенности тектоники и нефтегазоносности Учкизыл - Хаудагского поднятия по палеогеновым отложениям // O'zbekiston neft va gaz jurnali. 2011.№1. С. 15-18
- [10] Абдулаев Г.С., Нурмуродов Т.Н., Нуриллоев Х.Х., Закиров Р.Т., Зокиров О.А., Хасанов Р.К. Перспективы нефтегазоносности меловых и юрских отложений Сурхандарьинского нефтегазоносного региона / Нефть ва газ соҳасидаги замонавий инновацион технологиялар. Республика миқёсидаги илмий-техник анжумани тўплами. 2023 йил, 12 май. Тошкент, 2023. 8-12 бет.
- [11] Дононов Ж.У., Умурзаков Р.А. Бойсунтоғ Жануби-Ғарбий қисмидаги ер ёриқларининг жойлашиш хусусиятлари // Инновацион технологиялар журнали. Қарши. 2022. № 1. 17-21 б.